

O'zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlari


2026-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasida jami 63 954,7 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, bu ko'rsatkich 2025-yilning mos davriga nisbatan 15,5%ga oshdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



Hududlar kesimida bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %da
O'zbekiston Respublikasi¹	63 954,7	115,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3 313,4	176,0
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	3 307,4	113,5
Buxoro	4 618,5	124,0
Jizzax	1 733,6	119,4
Qashqadaryo	3 275,4	108,8
Navoiy	3 164,0	125,0
Namangan	3 005,8	116,1
Samarqand	3 723,2	110,9
Surxondaryo	3 207,5	110,0
Sirdaryo	1 206,0	115,6
Toshkent	6 614,2	107,3
Farg'ona	4 699,6	125,5
Xorazm	3 409,6	128,4
Toshkent shahri	17 308,2	108,9

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)


¹ Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- bino va inshootlar qurilishi yo'nalishi 73,5% ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 2025-yilning mos davriga nisbatan 16,8%ga oshdi;
- fuqarolik obyektlari qurilishi yo'nalishi 17,9% ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 2025-yilning mos davriga nisbatan 10,7%ga oshdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 8,6% ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 2025-yilning mos davriga nisbatan 14,4%ga oshdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	10 634,7	3 845,9	1 475,8
<i>o'sish sur'ati, %da</i>	<i>151,4</i>	<i>126,2</i>	<i>134,0</i>
Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	19 108,9	7 622,3	4 031,1
<i>o'sish sur'ati, %da</i>	<i>107,1</i>	<i>104,3</i>	<i>108,6</i>
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	17 232,4	3,6	-
<i>o'sish sur'ati, %da</i>	<i>112,3</i>	<i>1 216,7</i>	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

- [Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
- [Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
- [Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
- [Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
- [Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)
- [Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026-yilning yanvar-mart oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 15 956,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 42,8%ga oshdi. Umumiy hajmdagi ulushi 24,9%ni tashkil etdi.

Shuningdek, jami qurilish ishlari hajmining 48,1% i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 6,6%ga oshib, 30 762,3 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 27,0% (17 236,0 mlrd so'm) bo'lib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 12,3%ga oshdi.

Korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari (yanvar-mart oylari uchun)




Hududlar kesimida korxonalar turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, %da		
	Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxonalar va mikrofirmalar	Norasmiy sektor	Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxonalar va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
O'zbekiston Respublikasi²	15 956,4	30 762,3	17 236,0	142,8	106,6	112,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 695,5	961,5	656,4	1 134,6	86,6	105,5
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	444,8	2 014,3	848,3	149,7	108,7	110,9
Buxoro	1 293,1	1 690,6	1 634,8	308,5	91,5	112,1
Jizzax	284,5	970,5	478,6	156,7	117,8	107,2
Qashqadaryo	905,2	1 240,2	1 130,0	168,1	84,2	113,0
Navoiy	991,9	1 049,5	1 122,6	176,5	109,0	111,6
Namangan	213,7	1 237,6	1 554,5	121,5	114,4	116,8
Samarqand	570,9	2 590,8	561,5	203,7	102,8	101,0
Surxondaryo	314,9	1 797,1	1 095,5	155,0	102,4	114,4
Sirdaryo	257,3	718,2	230,5	151,4	106,4	116,1
Toshkent	1 482,3	2 790,8	2 341,1	105,7	114,1	101,1
Farg'ona	912,9	2 343,5	1 443,2	130,4	127,5	119,5
Xorazm	747,8	1 057,6	1 604,2	231,5	105,7	120,5
Toshkent shahri	4 473,3	10 300,1	2 534,8	104,0	108,9	118,6

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining eng yuqori ko'rsatkichlari Toshkent shahrida (4,5 trln so'm), Qoraqalpog'iston Respublikasida (1,7 trln so'm) hamda Toshkent viloyatida (1,5 trln so'm) qayd etildi.

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari ulushi



² Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda

IV. Uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarini o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, yer qatlamini ochish, madaniy-texnik ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlari qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumotlar uchun havolalar:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Investitsiyalar va qurilish
statistikasi boshqarmasi

Ijrochi:

D. Xidraliyeva
71 203-80-00 (1163)

Manzil:

